

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA MUNOSABAT VA MULOQOT MADANIYATINING TURLARI VA UNING AHAMIYATI

Nuriddinova Azizaxon Bahromjon qizi

Namangan davlat universiteti talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalar bilan to'g'ri muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish, bolalarni atrof-muhitga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, oila, maktab, mahalla konsepsiyasiga bog'liq holatda bolaning muloqotga kirishuvchanligini shakllantirish uchun muomala madaniyatining turlar va xususiyatlari yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Muloqot, madaniyat, oila, maktab, mahalla, shaxs, ta'lim, tarbiya, atrof-muhit, ko'nikma.*

***Аннотация:** В данной статье рассмотрены виды и особенности культуры поведения для формирования навыков правильного общения с детьми, для пробуждения у детей интереса к окружающему, для формирования восприимчивости ребенка к общению в условиях семьи, школы, соседства. понятия объяснил.*

***Ключевые слова:** Общение, культура, семья, школа, соседство, человек, образование, воспитание, среда, навыки.*

***Abstract:** In this article, the types and characteristics of the culture of behavior to form the skills of proper communication with children, to arouse children's interest in the environment, to form the child's receptiveness to communication in the context of the family, school, neighborhood concept. explained.*

***Key words:** Communication, culture, family, school, neighborhood, person, education, upbringing, environment, skills.*

KIRISH “Biz yoshlarga bo‘lgan davlat siyosatini hech og‘ishmasdan qatiyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz balki boshqa davlatlar havas qiladigan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarga bo‘lgan imkoniyatlarni kengaytiramiz.” Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev yoshlarda oid davlat siyosatida berilayotgan imkoniyatlar darajasini yanada yuksaltirish maqsadida yoshlarga imkoniyatlarni kengaytirdi. Bu imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri shaxslararo munosabat madaniyatini yanada takomillashtirish maqsadida muloqotning tulari va xususiyatlarini ishlab chiqdik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA Muloqot - ikki yoki undan ortiq odamlar o‘rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo‘lgan axborot almashinuvida ularning o‘zaro ta’sirlashuvi sifatida ta’riflanadi. Yoki: muloqot – odamlar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o‘zaro ta’sirning yagona yo‘lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish va rivojlatirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni. Bu «muloqot» tushunchasining eng to‘liq va aniq ta’rifidir Muloqot psixologiyasining predmeti - muloqot madaniyati, muloqot texnikasi, muloqot etikasini o‘rganishdan iborat. Psixologiya lug‘atida muloqot tushunchasiga ikki xil ta’rif beriladi:

1. Muloqot - hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o‘rnatish va uni rivojlantirish jarayoni;

2. Muloqot - belgilar tizimi orqali subyektlarning o‘zaro ta’sirlashuvi. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot ayirboshlashni o‘z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ (o‘zaro aloqaga doir) jihati hisobga olinadi.

Muloqot faqat insonlar o‘rtasida amalga oshadi. Inson bolasi aynan boshqalar bilan muloqotda va munosabatda bo‘lish jarayonida shaxsga aylanib boradi, ijtimoiy tajriba va madaniyatni egallab boradi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga

murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihati bor. Bu munosabatga kirishuvchilarning o‘zaro birgalikdagi harakati – nutq jarayonida faqat so‘zlar bilan muloqot yuritish emas balki harakatlar bilan ham muloqot yuritish mumkin. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan: kattalarning chaqaloqqa bolgan munosabati orqali, ya’ni unga o‘yinchoq ko‘rsatishi, termulishi,erkalashi unda tashqi ta’sirga javob reaksiyalarini faollashtirganidek, bolalarda o‘yin paytida ham shu reaksiya faollashib boradi Oilada farzandli ota-onalar ishonchli munosabatlar qurishlari lozim. Farzandingiz bilan uyda qanday muloqot qilish, ko‘p jihatdan chaqaloqning, maktabdagi bolalar bog‘chasi o‘qituvchilari va o‘qituvchilari bilan qanday bog‘lanishiga, u tengdoshlarining ota-onalari bilan qanday muloqot qilishiga va kelajakda ishdagi hamkasblari bilan qanday munosabatda bo‘lishiga bog‘liq bo‘ladi. Bir yoshli bolaning dunyoni idrok etishi o‘rtasidagi farq va besh yoshda, juda katta. Shuning uchun, kattalar va bola o‘rtasidagi muloqotning asosiy tamoyillaridan birini hech qachon unutmang - siz doimo chaqaloqning yoshini hisobga olishingiz kerak. **NATIJARLAR** Demak farzandingizning yoshiga, o‘zini tutishiga qarab munosabatda bo‘lsangiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Har bir yoshda siz alohida mavjudot bilan muomala qilasiz. Farzandingiz bilan sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar juda katta. Uning tanasi, ruhiyati, dunyo haqidagi bilimlari miqdori, xarakteri va intilishlari o‘zgarmoqda. O‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasidagi munosabatlar bolalar bog‘chasida o‘ziga xos xususiyatga ega. Bolalar bog‘chasi bola uchun faqatgina tashqi olamni bilish, dunyoni hissiy baholash emas, balki o‘z tengdoshlari bilan muloqotda bo‘lish imkoniyatini beradigan joydir. Masalan o‘g‘il bola yig‘lasa, “yig‘lama sen erkak bo‘lishing kerak”, “qiz bolamisan?” deb qizlar daraxtga tirmashsa “daraxtga tirmashma sen qiz bolasan” degan iboralar orqali bolalar bir birlariga tushuntiradilar. Bundan tashqari bolalar yon atrofdagi yaqin insonlariga o‘qituvchilariga, onasiga, dadasiga, aka yoki opalariga qarab ham o‘zlarini qanday tutishni o‘rganadilar. O‘yin faoliyatlarida erkak va ayollarga xos sususiyatlarni namoyon qiladilar.

MUHOKAMA Maktab yoshidagi bolalarda o‘yin faoliyati orqali iroda sifatlari shakillanadi. O‘yinda bolaning emotsional rag‘batlantirilishi yaxshi natija beradi. O‘yin faoliyati bolalarning bir-birlari bilan muloqotda bo‘lishlarini ta‘minlaydi. Ayniqsa, rolli o‘yinlar orqali bolalarning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini aniqlash mumkin bo‘ladi. Shuningdek, o‘yin orqali bolalarda boshqalarga nisbatan g‘amxo‘rlik, to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, muomala ehtiyojlarini qondirish amalga oshiriladi. O‘yin bolaning kattalar hayotini to‘g‘ri tushunishiga yordam beradi. Muloqotga bo‘lgan ehtiyoj o‘yinda qondiriladi. O‘yin qoidasini buzganda bola samimiylik bilan “endi bunday qilmayman”, deydi. Qiz bolalar ko‘proq qo‘g‘irchoqlar, idish-tovoqlar (o‘yinchoq) bilan muloqotda bo‘lsalar, o‘g‘il bolalar esa turli o‘yinchoqlar (samolyot, koptok, to‘pponcha, mashina, velosiped) bilan muloqotda bo‘ladilar. Kishining voqelikka, voqelikdagi narsalarga, hodisalarga qarashi, yondashish prinsipi. Ayol kishining fazilati bola bilan bo‘lgan munosabatda ochiladi. Inson moddiy boylikni, madaniy obidani yaratar ekan, o‘zining mehnatga bo‘lgan munosabatida ma‘naviy go‘zalligini namoyon etadi. Shaxslararo munosabatlar- bular obyektiv ravishda tajribali, turli darajada odamlar o‘rtasidagi idrok etilgan munosabatlardir. Ular o‘zaro ta‘sir qiluvchi kishilarning turli emotsional holatlari va ularning psixologik xususiyatlariga asoslanadi.

XULOSA Muloqot - faqat insonlarga xos bo‘lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlariga nimanidir aytish istagi tug‘iladi. Odamlar muloqotda bo‘lishgani sari, ular o‘rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari, ular o‘rtasida umumiylik, o‘xshashlik va uyg‘unlik kabi sifatlar paydo bo‘ladiki, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan yoki «yarimta jumladan» xam fikr ayon bo‘ladigan bo‘lib qoladi. Ayrim xollarda esa, ana shunday muloqotning tig‘izligi teskari reaksiyalarni - bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2017 –yil 6- apreldagi 187- sonli qarori.*
2. *L.Y.Olimov, L.S.Vigotskiy Nata Karlin, P.I.Ivanov “Bolalarning tengdoshlari bilan munosabati”, „Pedagogik mahorat”.*
3. www.ziyonet.uz